

INGLIZ TILIDAGI PSIXOLOGIK-MOTIVATSION ASARLARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA EMOTSIONAL OHANG VA PERSUAZIV USULLARINI YETKAZISH STRATEGIYALARI

Jumayeva Dilbar Kuvondikovna

Navoiy davlat universiteti

STRATEGIES FOR COMMUNICATING EMOTIONAL TONE AND PERSUASIVE METHODS IN TRANSLATING PSYCHOLOGICAL AND MOTIVATIONAL WORKS IN ENGLISH INTO UZBEK

Jumayeva Dilbar Kuvondikovna

Navoi State University

СТРАТЕГИИ ПЕРЕДАЧИ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ТОНА И ПЕРСУАЗИВНЫХ ПРИЕМОВ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ПСИХОЛОГО-МОТИВАЦИОННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Жумаева Дилбар Кувондиковна

Навоийский государственный университет



jumayeva1983@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologik va motivatsion adabiyotlarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda emotsional mazmun va persuaziv ritorik vositalarni saqlash strategiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot obyektlari sifatida Jeyms Klirning “Atom odatlar”, Stiven Kovining “Muvaffaqiyatli insonlarning 7 ko‘nikmasi” va Robert Kiyosakining “Boy ota, kambag‘al ota” asarlarining inglizcha asl matnlari hamda ularning o‘zbek tilidagi tarjimalari qiyosiy tahlil qilindi. Mazkur matnlardagi emotsional ohang, shaxsiy hikoyalar va ishontiruvchi ritorik vositalar tarjimada qanday strategiyalar orqali muvaffaqiyatli yetkazilgani ko‘rib chiqildi. Tahlil jarayonida tarjima nazariyasidagi dinamik ekvivalentlik, kalka, modulyatsiya, adaptatsiya kabi strategiyalarga tayangan holda, tarjima natijalarining samaradorligi muhokama qilindi. Natijada tarjimonlar original matnlardagi ruhiy holat, hissiy ta‘sir va ritorik uslublarni o‘zbekcha tarjimalarda ham to‘liq saqlab qolgani va bu orqali o‘zbek o‘quvchilarida original matnlarga yaqin ta‘sir uyg‘ota olganlari isbotlandi.

Kalit so‘zlar: tarjima strategiyalari, dinamik ekvivalentlik, emotsional mazmun, persuaziv ritorika, psixologik adabiyot, motivatsion matnlar, qiyosiy tahlil.

Abstract: This article explores strategies for preserving emotional nuances and persuasive rhetorical techniques in translating psychological and motivational literature from English into Uzbek. The comparative analysis focuses on Jeyms Klir's Atomic Habits, Stephen R. Kovi's The 7 Habits of Highly Effective People, and Robert Kiyosaki's Rich Dad Poor Dad along with their Uzbek translations. Specific translation strategies such as dynamic equivalence, calque, modulation, and cultural adaptation were examined to assess how effectively emotional tone, personal anecdotes, and persuasive rhetoric (ethos, logos, pathos) are maintained. The study demonstrates that the translators effectively preserved the original texts' emotional impact and rhetorical features, successfully generating responses in Uzbek readers comparable to those experienced by the original audience.

Keywords: translation strategies, dynamic equivalence, emotional nuance, persuasive rhetoric, psychological literature, motivational texts, comparative analysis.

Аннотация: В статье анализируются стратегии сохранения эмоциональных нюансов и убедительных риторических приёмов при переводе психологической и мотивационной литературы с английского языка на узбекский. Объектом исследования служат оригиналы произведений Джеймса Кэпена «Атомные привычки», Стивена Кови «7 навыков высокоэффективных людей» и Роберта Кийосаки «Богатый папа, бедный папа», а также их переводы на узбекский язык. Рассматриваются конкретные стратегии перевода, такие как динамическая эквивалентность, калькирование, модуляция и культурная адаптация, с целью оценки эффективности передачи эмоционального тона, личных историй и убедительных риторических приёмов (этнос, логос, пафос). В результате показано, что переводчикам удалось сохранить эмоциональную насыщенность и риторическую выразительность оригиналов, что позволило вызвать у узбекских читателей отклик, аналогичный тому, что испытывали читатели оригинальных текстов.

Ключевые слова: стратегии перевода, динамическая эквивалентность, эмоциональный нюанс, убедительная риторика, психологическая литература, мотивационные тексты, сравнительный анализ.

Kirish

Ingliz tilidan o'zbek tiliga psixologik va motivatsion adabiyotlarni tarjima qilish o'ziga xos qiyinchiliklarni tug'diradi. Jeyms Klirning *Atomic Habits*, Stephen R.Kovining *The 7 Habits of Highly Effective People* va Robert T.Kiyosakining *Rich Dad Poor Dad* asarlari umumjahon auditoriyasini ilhomlantirish va ishonitirish uchun yozilgan. Bu bestsellerlar o'quvchilarga ta'sir o'tkazish maqsadida emotsional hikoyatlar, motivatsion ohang va ritorik usullardan (ethos, pathos, logos) keng foydalanadi. Ularni muvaffaqiyatli tarjima qilish uchun shunchaki so'zlarni o'girish yetmaydi – tarjima matnida ham asl asardagi hissiy nozikliklar va ishonitiruvchi kuch aynan shunday samarali ifodalanishi lozim. Ushbu maqolada aynan mana shu masala o'rganiladi: *Atom odatlar* (Jeyms Klir, tarj. S. Qosimova, 2021), *Muvaffaqiyatli insonlarning yetti ko'nikmasi* (Steven R. Kovi, tarj. O. G'ulomova, 2020) va *Boy ota, kambag'al ota* (Robert T. Kiyosaki, tarj. M. Mirfayziev, 2019) nomli o'zbekcha tarjimalar misolida, original matnlardagi emotsional ifoda va ishonitiruvchi ritorika qanday saqlab qolingani haqidagi strategiyalar tahlil qilinadi. Tahlilda tarjima nazariyasining asosiy tushunchalariga tayaniladi – xususan, E.Nida taklif etgan formal va dinamik ekvivalentlik (Nida, 1964), J.P.Vinay va J.Darbelnet tomonidan tasniflangan tarjima usullari (Vinay & Darbelnet, 1995), J.House'ning "overt/covert" (ochiq/yopiq) tarjima modeli (House, 1997) hamda M.Bakerning ekvivalentlik darajalari (Baker, 1992) kabi nazariyalari asosida o'zbek tiliga tarjimada leksik,

grammatik va madaniy moslashuvlar qanday qo'llanilib, matnning pragmatik ma'nosi uzatilgani baholanadi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili

Tarjimashunoslik bo'yicha avvalgi tadqiqotlar mazkur masalalarni tushunish uchun zarur nazariy bazani taqdim etadi. Masalan, Eugene Nida (1964) tarjimada formal ekvivalentlik (so'zma-so'z yoki "matnga sodiq" tarjima) va dinamik ekvivalentlik (mazmunan erkinroq, lekin o'quvchiga asl matndagi kabi ta'sir ko'rsatishga intiluvchi tarjima)ni farqlagan. Vinay va Darbelnet (1995) tarjimada qo'llanadigan aniq usullar ro'yxatini taqdim etgan bo'lib, ularga to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish, kalkalash, grammatik o'zgarish (transpozitsiya), modulyatsiya, ekvivalentlik va moslashuv kabi strategiyalar kiradi. Juliane House (1997) tarjimalarni "ochiq" (manba madaniyatga xosligini oshkor qiluvchi) va "yopiq" (maqsad madaniyatida asliday qabul qilinuvchi) turlarga ajratgan. Mona Baker (1992) esa ekvivalentlik muammolarini so'z darajasi, ibora darajasi, grammatik qurilma, matn bog'lanishlari va pragmatik kontekst darajalarida ko'rib chiqishni taklif etgan. Ushbu nazariy yondashuvlar asosida maqolamizda o'zbek tarjimonlari muallif ovozi shonchiligi (ethos), dalillarning mantiqiy ravshanligi (logos) va matnning emotsional ta'sirchanligi (pathos)ni qay darajada qayta yaratishga erishganliklari tahlil qilinadi. Maqsad – motivatsion matnlardagi nozik ma'no va ta'sirni tarjimada samarali yetkazish uchun qo'llanilgan usullarni aniqlash va bunday jarayonda yuzaga chiqadigan qiyinchiliklarni yoritish.

Tadqiqot sifat jihatdan asliyat va tarjima matnlarni qiyosiy tahlil qilishga asoslanadi. Tanlangan uchta asarning inglizcha originalida emotsional hikoya yoki ishontiruvchi ritorikaga ega bo'lgan asosiy parchalar (masalan, shaxsiy xotiralar, motivatsion iboralar, ritorik savollar, metaforalar va muallifning to'g'ridan-to'g'ri maslahatlari) ajratib olindi. So'ng, ushbu qismlarning nashr etilgan o'zbekcha tarjimalardagi mos ekvivalentlari tahlil qilindi. Har bir inglizcha-o'zbekcha misol juftligi quyidagi savollar nuqtai nazaridan tahlil qilindi:

- Qaysi tarjima strategiyasi yoki usuli qo'llangan?
- Emotsional ohang qanday saqlangan?
- Ishontiruvchi ritorik vositalar qanday yetkazilgan?
- Leksik va grammatik darajada qanday o'zgarishlar yuz bergan?
- Madaniy moslashuv yoki izoh berish zarur bo'lganmi?

Natijalar va muhokama

Original matndagi hissiy ohangni saqlash

Tarjimonlar mualliflarning shaxsiy hikoyalari va motivatsion chaqiriqlaridagi hissiy yukni o'zbek tilida yetkazish uchun turli usullardan foydalandilar.

1. Jonli tasvir va emotsional ifoda: *Atomic Habits* asarining boshida Jeyms Klir o'zining sport jarohati haqidagi dramatik hikoyasini keltiradi. Tarjimada (*Atom odatlar*) ushbu voqea tafsilotlari va zarbaning hissiy ta'siri yorqin ifodalar bilan saqlangan. Masalan, original matndagi "... every minute mattered." (Clear, 2018, p. 8) jumlasini tarjimada "*Har bir soniya g'animat edi*" (Clear, 2021, 10-bet) shaklida berilgan. Bu yerda tarjimon vaqtning naqadar qadrlil ekanini ma'nosini anglatuvchi o'zbekcha idiomatik ifodani – g'animat (ya'ni behuda ketkazib bo'lmaydigan ne'mat) – tanlagan. Natijada ushbu ibora o'zbek o'quvchisi uchun ham vaqtdan unumli foydalanish zaruriyati hissinii uyg'otadi. Oddiygina so'zma-so'z tarjima ("har bir soniya muhim edi") bunday emotsional ta'sirga ega bo'lmas edi; aksincha, ana shunday idiomatik yechim Nida (1964) ta'kidlagan dinamik ekvivalentlik tamoyiliga muvofiq ravishda asl ohang va ta'sirni yetkazishga xizmat qilgan.

2. Shaxsiy hikoyatlar ohangini yetkazish: Uchala kitobda ham mualliflar birinchi shaxsda o'z hayotiy tajribalarini so'zlab, o'quvchi bilan hissiy bog'lanish (pathos) o'rnatadi. Tarjimonlar bu

samimiy ohangni iloji boricha saqlashga intilgan. "*Atom odatlar*"da Klirning o'sha jarohat hikoyasi birinchi shaxs nigohida, grafigi quyuq so'zlar bilan tasvirlangan (masalan, tanasi ya'ni "...ko'z kosam ham dabdala bo'lgandi." (Klir, Tarj. 2021, 9-b) ("*I had...two shattered eye sockets...*" (Asliyat, 8-bet)) kabi ifodalar bilan jarohatlanganini aytadi) – bu originaldagi og'riq va dahshat hissinii aks ettiradi. "*Muvaffaqiyatli insonlarning 7 ko'nikmasi*"da Kovi farzand tarbiyasidagi qiyinchiliklar haqidagi o'ta samimiy hikoyasini bo'lishadi; tarjimada bu yerda muallifning muloyim va samimiy ohangini saqlash uchun o'zbek tiliga xos bo'lgan hurmatli murojaat shakllari va ohangdor so'zlar qo'llanilgan. Bu usul muallif ovozinii kamtar va samimiyligini (ethos) o'quvchiga yetkazadi. Xuddi shuningdek, "*Boy ota, kambag'al ota*"da Kiyosaki bolaligidagi turli hissiyotlarini – uyat, ilhom, ochko'zlik, qo'rquvni – tasvirlar ekan, ularni tarjimon ham ekvivalent hissiy otlar va undovlar bilan berishga harakat qilgan. Masalan, asarda yosh muallifning otasi bilan muloqoti paytida uchraydigan "[...] Istehzoli kulib qo'ydi" degan jumla ("[he] chuckled sarcastically" mazmunida) tarjimada ham shunday berilgan bo'lib, suhbatdagi kinoya va hissiy tus aynan yetkazilgan (Kiyosaki, 2016). Bu kabi detallarga e'tibor original sahnaning hissiyotini o'zbek kitobxoniga ham ta'sirchan qilib yetkazganini ko'rsatadi.

Madaniy kontekst orqali pathos:

Tarjimonlar, umumiy qilib aytganda, asarlarning madaniy manzarasini o'zgartirmaslikka harakat qilganlar (masalan, voqealar Amerikaning maktab yoki beysbol maydonida bo'lib o'tadi), lekin zarur joylarda qisqa tushuntirish berib, o'zbek o'quvchisining emotsional tushunishini osonlashtirganlar. Masalan, Klirning beysbol o'yinidagi baxtsiz hodisasini tasvirlar ekan, "beysbol tayoqchasi" atamasi qo'llanadi – bu bevosita o'zlashma (borrowing) bo'lib, beysbolga mahalliy ekvivalent yo'qligi sabab tarjimada ham asl nomi berilgan. Biroq shu jumlada hodisa oqibatlarini yanada ravshan tasvirlanadi: tayoqchani "*to'g'ri men tomonga uchib kelib peshonamga urilgani*" haqida qo'shimcha aniqlik kiritiladi. Bunday tasvir orqali o'zbek o'quvchi beysbol o'yini tafsilotlarini bilmasa ham, jarohatning dahshatini va og'riqni tasavvur qila oladi. Umuman olganda, tarjimonlar hissiyotga boy voqealarda madaniy realiyalarni butkul almashtirishga ko'p murojaat qilmagan, aksincha House (1997) ta'riflagan "yopiq tarjima" uslubida

ishlaganlar – ya’ni voqeaning asl muhitini saqlagan holda, kerak joyda sodda tushuntirish yoki tanishroq soʻz orqali oʻquvchiga begona tuyulmaslikka erishganlar. Bu yondashuv tufayli original matnlardagi pathos – hissiy taʼsir kuchi – yoʻqolmagan, aksincha, oʻzbek oʻquvchisi ham voqealarni xuddi shunday his eta olgan.

Ishontiruvchi ritorik usullarni tarjima qilish

Kitoblarning oʻquvchiga ishontiruvchi taʼsiri koʻp jihatdan ularning ritorik uslublariga bogʻliq. Tarjimalarda ushbu usullarni imkon qadar aks ettirishga harakat qilingan:

1. Ritorik savollar: Mualliflar oʻquvchini mulohazaga chorlovchi ritorik savollardan tez-tez foydalanadi. Oʻzbekcha tarjimalarda bu savollar saqlab qolingan va deyarli aynan tarjima qilingan – natijada oʻquvchi bevosita murojaat qilinganidek his etadi. Masalan, Jeyms Klir asarining asliyat matnida muallif oʻquvchining eʼtirozini oldindan taxmin qilib: “*“What about luck?” you might be thinking.*” deb yozadi. Oʻzbekcha nashrda bu jumla “*“Omad-chi?” deya oʻylayotgandirsiz*” tarzida berilgan (Clear, 2018, p. 35; Tarjima, 2021, 37-bet). Tarjimon ushbu savolni qisqacha “Omad-chi?” deb aynan qoldirgan va “deya oʻylayotgandirsiz” qoʻshimchasini qoʻshib, muallifning bevosita sizlab murojaat qiluvchi, samimiy ohangini saqlagan. Natijada “Omad-chi?” savoli oʻzbek oʻquvchisiga ham xuddi originaldagi kabi ichki savol sifatida tuyuladi va uning diqqatini tortadi. Xuddi shunday, Kovi matnida “*Can you imagine the frustration, the ineffectiveness of trying to reach your destination?*” (Kovi, 1989, 22-b) degan jumla bilan oʻquvchining oʻrniga oʻzini qoʻyib koʻrishini soʻraydi; tarjimada bu “*Butunlay boshqa xaritadan foydalanib, koʻzlagan manzilingizga etib boorish naqadar ortiqcha ovoragarchilik boʻlishini tasavvur qilyapsizmi?*” (Tarjima, 17-b) shaklida, ochiq savol ohangida berilgan. Ritorik savollar tarjimada saqlanishi muallifning mantiqiy asoslari (logos) va hissiy hamdardlik uygʻotish (pathos) usullarini ham saqlab qoladi, chunki oʻquvchi matnni oʻqiyotganda xuddi shu savollarga oʻzi javob izlagandek boʻladi va muallif fikriga sherik boʻladi.

2. Murojaat olmoshlari (ikkinchi shaxs “siz” va birinchi shaxs “biz”): Psixologik-motivatsion matnlarda muallif koʻpincha oʻquvchiga

bevosita murojaat qiladi (“siz...”) yoki oʻzini ham shu guruhga qoʻshib, “biz” degan birinchi shaxs koʻplik olmoshidan foydalanadi. Tarjima jarayonida bu pronominal tanlovlar oʻzbek tilining ijtimoiy-pragmatik meʼyorlariga moslab amalga oshirilgan. Uchala tarjimada ham oʻquvchiga nisbatan odobli ikkinchi shaxs – siz olmoshi qoʻllaniladi, chunki oʻzbek adabiy nutqida kitobxonni “sen” deb murojaat qilish nooʻrin. Bu tanlov original matndagi muallifning kattalarga xos samimiy, lekin hurmatli ohangini saqlashga imkon bergan. Masalan, *Atomic Habits* kitobidagi boʻlim sarlavhalaridan biri “*How will this book benefit you?*” boʻlsa, u tarjimada “Bu kitob sizga qanday naf keltiradi?” deb berilgan (Clear, 2018; Clear, 2021). Koʻrinib turibdiki, “you” -> “sizga” deb aynan hurmat shaklida berilgan va savolning tuzilishi ham saqlangan. Muallif shu tariqa oʻzbekcha matnda ham oʻquvchi bilan bevosita va samimiy, lekin odob doirasidagi muloqotni davom ettiradi. Inclusive “we” koʻplab joylarda “biz” deb tarjima qilingan, bu esa originaldagi muallif va oʻquvchi oʻrtasidagi “bir jamoa” hissini saqlagan. Shunday nozik grammatik moslashuv Mona Baker (1992) taʼkidlagan pragmatik ekvivalentlikning bir koʻrinishidir: natijada tarjima matnida muallif va oʻquvchi orasidagi munosabat oʻzbek kitobxoniga tabiiy va qulay seziladi, ayni paytda muallifning ishonchliligi (ethos) ham saqlanadi.

3. Takrorlash va urgʻu: Motivatsion matnlarda muhim gʻoyalarni mustahkamlash uchun mualliflar kalit iboralarni takrorlash va qiyosiy tuzilmalardan foydalanadi. Tarjimonlar bu takroriy uslublarni oʻzbek tilida ham iloji boricha aks ettirishga harakat qilgan, chunki bunday parallel tuzilma va takrorlar oʻquvchiga asliyatdagi kabi kuchli taʼsir koʻrsatadi. Masalan, *Rich Dad Poor Dad* asarida Kiyosaki ikki xil dunyoqarashni taqqoslab koʻrsatish uchun bir qolipdagi gaplarni takrorlaydi: “... *one dad had a habit of saying, “I can’t afford it.” The other dad forbade those words to be used. He insisted I ask, “How can I afford it?”*”. Tarjimon bu iboralarni deyarli soʻzma-soʻz saqlagan: “... *bir otamning bunday deyish odati bor edi: “Men bunday qilolmayman”. Ikkinchi otam esa bunday fikr yuritishni menga taʼqiqlab, shu gapni quyidagicha aytardi: “Qanday qilib men buni qilishim mumkin?”*” (Kiyosaki, 1997, 13-bet; Tarjima, 2019, 23-bet). Parallel qurilma va takrorlangan soʻzlar (qilolmayman va qanday qilib... mumkin) oʻzbek kitobxoniga ongida ham xuddi

shunday “aha-moment” – tushuncha uygʻotadi: birinchi ibora oʻzlikni bildirsa, ikkinchisi yechim izlashni koʻrsatadi. Tarjimaning bu joyi yuzaki qaraganda formal ekvivalentlikka oʻxshaydi (matn yuzasidan soʻzlar aynan takrorlangan), ammo xizmat qilayotgan maqsadi dinamik: oʻzbek oʻquvchi ham “qanday qilib...” savoli orqali muallif aytmoqchi boʻlgan fikrni chuqurroq anglaydi va ruhlanadi. Shuningdek, Kovi matnida uchraydigan muhim shiorlardan biri “*Seek first to understand, then to be understood*” (avval tushun, keyin tushuntir) boʻlib, u *Muvaffaqiyatli insonlarning 7 koʻnikmasi* tarjimasida “Tushuning va tushunarli boʻling” tarzida ritmik va parallel tuzilmani saqlagan holda berilgan (Kovi, 1989, 259-bet, 5-habit; Kovi, tarj, 2020, 277-bet). Bunday iboralarni asl holatiga yaqin tarjima qilish ularning esda qolarli va samarali (logos va ethos jihatdan kuchli) boʻlib qolishini taʼminlaydi.

4. Metafora va oʻxshatishlar: Mualliflar oʻquvchini ishonitirish uchun koʻpincha obrazli oʻxshatish va metaforalardan foydalanadilar – bu usul bir vaqtning oʻzida mantiqiy dalilni (logos) hayotiy misol bilan mustahkamlash va hissiyotga taʼsir etishni (pathos) koʻzlaydi. Metaforalarni tarjima qilishda qiyinchiliklar tugʻiladi: soʻzma-soʻz tarjima gʻalati yoki tushunarsiz chiqishi mumkin, ammo toʻliq almashtirish asl obraz taʼsirini yoʻqotishi mumkin. Tahlil qilgan misollarimizda tarjimonlar odatda original metaforalarni saqlagan holda, ularni kontekst yordamida tushunarli qilishga harakat qilganliklari koʻzga tashlanadi. Masalan, Kovi kiritgan mashhur tushuncha – “*Emotional Bank Account*” – original matnda insonlararo ishonchni tasvirlash uchun ishlatilgan metafora. Tarjimon buni toʻgʻridan-toʻgʻri “hissiyot bankidagi hisob raqami” deb tarjima qilgan (Kovi, 1989, 1-bob, 209-bet; Kovi, 2020, 215-bet). Bu kalka usulidagi tarjima boʻlib, inglizchadagi har bir unsur (emotion = hissiyot, bank account = bankdagi hisob raqami) alohida tarjima qilingan. Albatta, hissiyot banki iborasi oʻzbek tilida avvaldan mavjud boʻlmagan, lekin muallif matn davomida uni batafsil tushuntirib bergani bois (ishonch va ishonchsizlik “depozit” va “yechib olish” kabi tushunchalar bilan izohlanadi), oʻquvchi bu yangi metaforani qabul qila oladi. Tarjimon bu terminni mutlaqo boshqacha bir ibora bilan almashtirmagan, balki matn ichidanoq qisqa izoh berish bilan kifoyalangan – natijada Koving ushbu mantiqiy metaforasi (ishonchni bankdagi

pulga qiyoslash) hamda uning biroz hissiy jozibasi saqlab qolingan. Yana bir misol: *Atomic Habits* kitobida muallif odatlarni iqtisodiy tamoyilga oʻxshatib, “*Habits are the compound interest of self-improvement*” deb yozadi. Tarjimon buni kombinatsiyalashgan usulda – qisman oʻzlashma, qisman izoh bilan – “Odatlar – oʻz-oʻzini rivojlantirishning murakkab foizidir” deb bergan (Clear, 2018, p. 251; Clear, 2021, 266-bet). Bu yerda “murakkab foiz” termini (inglizcha *compound interest*) oʻzbek tilida iqtisodiyot va moliya sohasida allaqachon qoʻllanadi, bilimli kitobxon unga duch kelgan. Tarjimon auditoriya ushbu oʻxshatishni kontekstdan tushunib oladi, deb ishonib, ortiqcha izoh qoʻshmagan – yaʼni funksional ekvivalentlikni koʻzlagan. Natijada bu metafora oʻzbek oʻquvchisida ham xuddi shunday “kichik oʻzgarishlar jamlanib katta natija beradi” degan tushunchani uygʻotadi. Umuman, biz kuzatganimizdek, muhim persuziv analogiyalarning birortasi tarjimada bekor qilinmagan yoki butunlay oʻzgartirilmagan – bu tarjimonlar original mualliflarning obrazli tasvirlarini toʻliq yetkazish uchun aniqlik va ijodkorlikni muvozanatda ushlaganini koʻrsatadi.

Muallif uslubi va ohang

Tarjimalarning yana bir muhim jihati – ularda mualliflarning uslubiy ovozi va ohangini (tone of voice) qay darajada muvaffaqiyatli yetkazilganidir. Bu aspekt muallifning ishonchliligi va xarizmasini (ethos) oʻquvchiga etkazishda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Har bir muallifning uslubi oʻziga xos boʻlib, tarjimonlar ular uchun turli strategiyalarni qoʻllashgan:

1. Rasmiy va norasmiy uslubga moslashuv: Stephen R. Kovi uslubi rasmiy, oʻqituvchiga xos va printsiplial ohangda boʻlib, uning asari koʻp jihatdan falsafiy-didaktik ruhda yozilgan. Tarjimonda ham *Muvaffaqiyatli insonlarning 7 koʻnikmasi* kitobida shu ohangni iloji boricha saqlashga intilish kuzatiladi. Jumalari koʻpincha asl matndagi kabi uzun va murakkab tuzilgan; terminlar uchun esa adabiy tildagi rasmiy ekvivalentlar tanlangan: *principle* soʻzi uchun tamoyil, *paradigm* uchun paradigma, hatto asarning nomida *highly effective* iborasi muvaffaqiyatli (yaʼni “samarali” oʻrniga koʻproq ishlatiladigan soʻz) bilan ifodalangan. Bu uslubiy sodiqlik, aslida, formal ekvivalentlikka yaqin: muallif uslubining badiiy va terminologik xususiyatlari tarjimada ham yaqqol seziladi. Aksincha, Robert Kiyosaki uslubi juda

dialogik, samimiy va ba'zan keskin ifodali. *Rich Dad Poor Dad* asari moliyaviy savodxonlik haqidagi suhbatlar tarzida yozilgan, muallif ba'zan o'tkir fikrlarni oddiy tilda aytadi. Uning *Boy ota, kambag'al ota* tarjimasida tarjimon sodda va qisqa jumlar, kerak o'rinlarda xalqona iboralar orqali shu uslubni jonlantirgan. Masalan, boy ota maktabda o'qitiladigan ortiqcha fanlar haqida gapirganda originalda kinoyali ohang sezilsa, tarjimada ham shunga yaqin ohang yaratilgan: "Nima uchun men hayotimda kerak bo'lmaydigan fanlarni o'rganish uchun o'z vaqtimni sarflashim kerak?" deb noliydi (Kiyosaki, 2016, 12-bet). Ushbu jumladagi "o'z vaqtimni sarflashim kerak?" degan ibora tarjimada norozi ohangni bildiradi – xuddi muallifning o'sha joydagi ohangi kabi. Bunday moslashuvlar Kovi tarjimasida uning vazmin va dono murabbiy qiyofasini (ethos) saqlagan bo'lsa, Kiyosaki tarjimasida uning ochiqko'ngil, keskin va jo'n uslubini yetkazgan. Tarjimonlarning bu uslubiy yechimlari har bir muallifning "ovozi"ni o'zbekcha matnda ham sezdirib, kitobxonning muallifga bo'lgan ishonch tuyg'usini mustahkamlagan.

2. Atama va ohangning izchilligi:

Motivatsion matnlar odatda muayyan kalit atamalar atrofida tuziladi va butun kitob davomida izchil ruhlantiruvchi ohangni ushlab turadi – bu holat muallifning ishonchliligini va asarning yaxlitligini ta'minlaydi. Tarjimonlar buni chuqur his qilgan holda, atama va ohang jihatidan izchil yondashishga harakat qilishgan. *Atomic Habits* kitobida Jeyms Klir muntazam ravishda *habit* (odat) tushunchasini va uning tarkibiy qismlarini ("cue" – ishora, "craving" – ishtiyoq, "response" – javob, "reward" – mukofot) eslatib boradi. Tarjimon ushbu tushunchalar uchun doimiy o'zbekcha ekvivalentlarni tanlab, matn davomida izchil qo'llagan: *habit* → odat, *craving* → ishtiyoq, va hokazo. Bu terminologik izchillik matnning mushtarak mazmuniy tizimini o'zbekcha kitobda ham mustahkamlagan va o'quvchiga tushunchalarni aniq tushunishga yordam bergan. Bu holat Baker (1992) ta'kidlagan matn (textual) ekvivalentligi talablari bajarilganini ko'rsatadi – ya'ni tarjima matni yaxlit va bog'langan terminologiyaga ega. Shuningdek, hamma tarjimalarda umumiy motivatsion, dalda beruvchi ohang (tone) izchil saqlangan. Mualliflar ba'zan muvaffaqiyatsizlik yoki xato haqida gapirganlarida, tarjima matnida ham tanqidiy yoki ruhan tushkun ohangga yo'l qo'yilmagan, balki konstruktiv va

ruhlantiruvchi til tanlangan. Masalan, asliyatda "mistakes" (xatolar) yoki "weaknesses" (kamchiliklar) kabi so'zlar ishlatilgan joyda tarjimada bevosita qattiq ma'noli so'zlardan ko'ra yumshoqroq "kamchilik", "nuqson" kabi so'zlar tanlangan. Bu kabi leksik nyuanslar *pragmatik ekvivalentlikni* ta'minlashga qaratilgan bo'lib, matnning motivatsion ruhini saqlashga xizmat qiladi – o'quvchi o'zini tanqid ostida emas, balki rag'bat ostida his qiladi. Tarjimonlar, Nida (1964) qayd etganidek, "asl matnning ruhini va ohangini saqlagan holda, tabiiy va ravon ifoda" yaratishga intilganlar. Bu muvozanatli yondashuv tufayli tarjima matnlar o'quvchiga qiyin tushunchalarni ham oson, tushunarli va ruhlantiruvchi tarzda yetkaza olgan.

Umuman olganda, tarjimonlar yondashuvini "mazmunga sodiq, ifodada erkin va tabiiy" deb xulosa qilish mumkin. Ular har bir gapning mazmuniy mag'zini (nimani demoqchiligini) halol saqlagan holda, uni o'zbek tilida tabiiy chiqadigan tarzda qayta ifodalaganlar. Bu yondashuv Eugene Nida (1964) belgilagan tarjimaning to'rt asosiy talabiga javob beradi: (1) mazmunini to'g'ri yetkazish, (2) asl ruhini va ohangini saqlash, (3) til jihatidan tabiiy va ravon bo'lish, (4) tarjimani o'quvchida originalga yaqin ta'sir uyg'otish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, *Atomic Habits, The 7 Habits of Highly Effective People* va *Rich Dad Poor Dad* asarlarining o'zbekcha tarjimalari asliyatdagi emotsional nozikliklar va ishontirish (persuaziv) usullarini mahorat bilan o'zlashtirgan. Dinamik ekvivalentlikka intilish, tarjimaning turli usullaridan o'rinli foydalanish va madaniy sezgirlikning uyg'unligi evaziga tarjimonlar original asarlarning motivatsion va persuaziv kuchini o'zbek tilida ham jonlantira olganlar. Ular nafaqat tilni, balki asarning o'quvchiga ta'sirini ham tarjima qila olishdi – Klir matnining dalda beruvchi do'stona ohangi, Kovi prinsiplarining donoligi va jiddiy ohangi, Kiyosaki darslarining mushohada yuritishga undaydigan savollari va ilhomlantiruvchi xulosalari o'zbekcha talqinlarda ham o'quvchiga to'la yetib boradi. Bu, albatta, oson erishilmaydigan yutuqdir: motivatsion adabiyotning qalblarga yo'l topib, tafakkurni o'zgartirish qobiliyati tarjimada ham "tarjima" bo'lganini – ya'ni saqlanib qolganini ko'rsatadi. Shubhasiz, bunday tarjimalar jarayonida idiomatik ifodalar, ohang farqlari, madaniy realiyalar kabi qiyinchiliklar yuzaga chiqadi. Biroq, ushbu

tarjimonlar misolida ko'rdikki, ijodkorlik va halollik bilan yondashilganida bu to'siqlar yengib o'tiladi: nazariy asoslangan ongli qarorlar orqali muallifning "ruhini" asliyatga sodiq holda adekvatlik bilan, ammo o'zbek tilining imkoniyatlarida to'liq ifodalash mumkin ekan. Natijada, bu tarjimalar o'zbek kitobxonlarini jahonning ilg'or g'oyalari bilan mahalliy ohangda tanishtirib, ularga motivatsiyani o'z tillarida his qilish imkonini bermogda. Tarjimonlar shu tariqa nafaqat tillararo, balki madaniyatlar va dunyoqarashlararo ko'prik vazifasini bajarib, qalblarga ilhom ulashmogda.

Adabiyotlar

1. Baker, M. (1992). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge.
2. Clear, J. (2018). *Atomic Habits: An Easy & Proven Way to Build Good Habits & Break Bad Ones*. New York: Penguin Random House.
3. Clear, J. (2021). *Atom odatlar* (Sarvinov Qosimova, Tarj.). Toshkent: Asaxiy Books. (Asl asar 2018-yilda nashr etilgan)
4. Kovi, S. R. (1989). *The 7 Habits of Highly Effective People*. New York: Free Press.
5. Kovi, S. R. (2020). *Muvaffaqiyatli insonlarning 7 ko'nikmasi* (Orifaxon G'ulomova, Tarj.). Toshkent: Asaxiy Books. (Asl asar 1989-yilda nashr etilgan)
6. House, J. (1997). *Translation Quality Assessment: A Model Revisited*. Tübingen: Gunter Narr.
7. Kiyosaki, R. T. (1997). *Rich Dad Poor Dad*. Scottsdale, AZ: Plata Publishing.
8. Kiyosaki, R. T. (2016). *Boy ota, kambag'al ota* (Mirafzal Mirfayziev, Tarj.). Toshkent: Nasaf. (Asl asar 1997-yilda nashr etilgan)
9. Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating*. Leiden: E. J. Brill.
10. Nida, E. A., & Taber, C. R. (1969). *The Theory and Practice of Translation*. Leiden: E. J. Brill.
11. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation* (J. C. Sager & M.-J. Hamel, Trans.). Amsterdam: John Benjamins. (Asl asar 1958-yilda fransuz tilida nashr etilgan)

